

Jahon adabiyotshunosligida Uillyam Shekspir tragediyalarining talqini.

NDPI ingliz tili va adabiyoti fakulteti, ingliz tili amaliy kursi kafedrası
o‘qituvchisi Sharipova Bahora Odiljonovna
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi.
Ziyodullayeva Shaxnoza Shavkatovna.

Annatsiya: Shekspir ijodi, fojyaviy motiv, Shekspir asarlari, Tarjima, bilvosita tarjima, adiblarning Shekspir asarlariga bergan fikrlari.

Shekspirona go‘zallik tushunchasining chigal va murakkabligi ham , oliy darajadagi tragizimi ham , eng muhimi , millat va zamon tanlamasligi ham undagi haqqoniyatda. Samoviy badiiyat (haqiqat) shu qadar yuksak , ba‘zan uni anglash uchun tafakkur va mantiqning o‘zi kifoya qilmaydi. Tolstoy tanqidiga xos haqiqat esa , ko‘proq mantiqqa tayanadiki, u ham o‘z navbatida bir ijodkor qarashi sifatida ahamiyatlidir.

(Uzoq Juraql.)

Biz nemis shoiri Gyotening “Shekspir bepoyon ...” degan fikriga mutloq qo‘shilamiz. Haqiqatdan uning poyoni yoq. Har bir davr , har qaysi millat , uning asarlaridan ma‘naviy oziq oladilar. Shekspir tafakkuri yaratgan har qanday yomonlikka nisbatan kelishmovchi obrazlar hayot protsesi (jarayoni), qonuniyati insoniy munosabatlar mohiyatini anglab yetishga yordam beradi. Shuningdek uning do‘sti , qalamkash va ilk tanqidchisi Ben Jonson” U faqat o‘z davrigagina emas , balki hamma davrlarga taaluqli” deb bashorat qilgan edi.¹ Mana nechki asrdirkim biz ushbu bashoratni rad qilolmaymiz. Shekspir haqiqati , Shekspir falsafasi zamonlar osha , asrlar osha yangi avlodlarning qalbini hamon zabt etib kelmoqda. Uning asarlari komediyalari tragediyalari dunyoning barcha teatrlarini zabt etdi. Yozuvchi ijodi o‘zining boshqalarnikiga o‘xshamasligi bilan ajralib turadi. Hech zamonlarda o‘lmaydigan insoniyatdagi illatlar va ularni qoralovchi obrazlar juda hayratlanarli o‘ta shiddatli, kutilmagan, nomutanosib va jiddiy obrazlarga boy.

¹.Sulaymonova. F. Shekspir o‘zbekistonda.- Toshkent. Fan, 1978 - B. 3.



Gʻarbiy Yevropada Shekspir ijodini oʻrganish XVIII asrning oʻrtalariga toʻgʻri keladi. Germaniyada Gyote va Lessing, Fransiyada Volter va boshqalar Shekspir faoliyati haqida turli xil fikrlar aytgan. Rossiyada ham Shekspir asarlariga qiziqish XVIII asrning oxirlarida boshlangan. N.M Karamzin uning “Yuliy Sezar” tragediyasini tarjima qilgan. A.S.Pushkin Shekspir dramatik ijodiga yuqori baho bergan. V.D.Belinskiy Shekspirning realistik metodini batafsil tahlil qilib, yuksak baholagan. M.Gorkiy Shekspirni “eng ulugʻ dramaturg” deb atagan edi.

Biz Shekspirni hayot qarama-qarshiliklariga jiddiy eʼtibor qaratgan, kundalik turmushda uchraydigan holatdan larzaga keladigan adib sifatida bilamiz.² Fojiviy motivlarni yosh Shekspirning tarixiy pyesalarida ham, adib umrining taxminan 31-yillarida yaratilgan birinchi tragediyasi «Romeo va Julyetta»da ham uchratish mumkin. Adib 40 yoshga yaqinlashganida fojiviylik uning ijodida asosiy mohiyatni tashkil etardi. 37 yoshida «Hamlet»ni, 40 yoshida «Otello»ni, 41 yoshida «Qirol Lir»ni, keyin «Makbet», «Antoniy va Kleopatra» ni va 44 yoshida oxirgi fojia – «Afinalik Timon»ni yaratdi. Shekspirning «Romeo va Julyetta», «Hamlet», «Otello», «Qirol Lir» tragediyalarini bir qatorga qoʻyish mumkin. Ularga xuddi shu tartibda – inson hayoti yoshlik davridan qariligigacha boʻlgan bosqichlar sifatida qarash oʻrinli boʻlsa kerak.

Shekspir ijodi haqida yozgan tadqiqotchilar uning shoirlik isteʼdodiga bas keladigan ijodkorni topish juda mushkul ekanligini alohida taʼkidlaydilar. U chinakamiga ulkan, nafis soʻz ustasi shuningdek, fikrni teran shaklda aks ettirishda ham tengi yoʻq edi. Tom maʼnoda Uilyam Shekspirning «jumlada fikrni taʼsirli aks ettirish» mahorati noyobdir. Shu tufayli bu daho adib asarlari bilan toʻliq tanish boʻlmaganlar ham uning koʻpgina satrlarini yoddan biladilar.

Shekspirning oʻlmas asarlarini oʻzbek tiliga oʻgirishda Gʻafur Gʻulom va Maqsd Shayxzoda, Uygʻun va Komil Yashinlarning xizmatlari ham katta boʻlgan. Oʻzbek kitobxonlari Shekspirning «Hamlet» tragediyasi bilan ilk bor 1935-yilda oʻzbek sahnasida Mannon Uygʻur tomonidan qoʻyilib, necha minglab tomoshabinlar qalbida muhrlangan edi. Shundan keyin teatrlarimizda «Otello» va «Romeo va Julyetta», «Yuliy Sezar» va «Qirol Lir», «Veronalik ikki yigit», «Yoz tungi gʻaroyibotlari» kabi dramalari sahnalashtirilgan.

² Вильям Шекспир. Танланган асарлар. 5 жилдлик. Қирол Лир. 2-жилд. Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981.

Shekspir merosi – abadiy soʻnmas mashʼala. Uning nuri necha asrlarkim, dunyo xalqlarining koʻnglini munavvar etib, oʻz tebrasida birlashtirib keladi, insonlarni insonlarga tanitadi, ellarni ellarga yaqinlashtiradi, hech qachon zulmatning ziyodan gʻolib kelmasligiga kitobxonni ham, tomoshabinni ham ishontiradi, yoʻldan adashganlarga yoʻl koʻrsatadi, ezilgan, jabr chekkanlarni suyardi. Kechmish ayyomlar tarixi buni yaqqol tasdiqlab turibdi. Shekspir asarlari bizga mangu maʼnaviy yoʻldosh boʻlib qoladi. Va bu mislsiz ijod zamonlar osha barcha nasllar uchun maʼnaviyatning yuksak manzillarni yorituvchi yorqin bir mashʼala kabi yarqirab, nur sohib yashayveradi. Uning asrlari oʻlmas umuminsoniy tuygʻularni qamrab olgan. Asarlarida har bir inson uchun tanish kechinmalar, hislar pafosi his etish, tuyish qiyin emas.

Shekspir – jahon adabiyotining yorqin siymosi. Turli davr, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum va xalqlar va adabiyotlarning adabiy-madaniy oʻziga xosliklariga qarab Shekspir asarlari turlicha talqin qilib kelinmoqda.

Sobiq ittifoq hududida, jumladan rus va ukrain adabiyolariga Shekspir XIX asrning oʻrtalarida kirib kela boshlagan. Filologiya fanlari doktori, professor Gʻaybulla Salomovning taʼkidlashicha, Shekspir, 1845-1849 yillarda prof. P.Savitskiy “Hamlet”ning birinchi pardasini polyak tilidan ukrain tiliga oʻgʻirgan.³ 1872-1874 yillarda yozuvchi Y. Fedkovich “Hamlet” va “Makbet” tragediyalarini nemischadan ukrain tiliga tarjima qilgan. 1850-yilda D.Kipiani Shekspirning “Romeo va Julyetta” tragediyasining gruzincha dastlab tarjimasini qayta ishlar ekan, Benjamin Laroshfukoning fransuzcha tarjimasidan foydalanganligini qayd etadi yoki boʻlmasam “Qirol Lir”ning Gʻafur Gulom tomonidan rus tilidan olingan tarjimasini aytaylik. Bunday tarjima hodisasini asliyatning tarjima tiliga ikkinchi yoki uchinchi tillardan kirib kelish, deb ham yuritiladi. Chunki, badiiy tarjima faqat lingvistik hodisa boʻlibgina qolmay, u keng maʼnodagi estetik hodisa va badiiylik bilan bogʻliq boʻlgan kategoriya ham sanaladi. Shekspir asarlari tarjimalari tahlili borasida fikr yuritganda tarjima jarayonida filologik tahlil intuitsiya bilan yonmayon yurishini, boshqacha aytganda, tarjimada tahlil va tasvir oʻzaro hamkorlik qilishini esdan chiqarmaslik lozim. Bu borada Gʻ.Salomovning “Til va tarjima” (1966), “Tarjima nazariyasiga kirish” (1978), “Adabiy anʼana va badiiy tarjima”(1980) monografiyalarida atroflicha fikr yuritilgan.

³ 9Саломов Ф. Адабий анъана ва бадий таржима. – Тошкент: Фан, 1980, Б.15.

Rus shekspirshunosligidagi diqqatga sazovor ishlardan birini Korney Chukovkiy amalga oshirgan. Uning tadqiqotlarida Shekspirni rus tiliga tarjima qilish an`analari, usullari borasida qiziqarli fikrlar aytiladi. Jumladan, uning “Yuqori san`at” nomli risolasida rus tiliga o`girilgan tarjimalarning asliyatga qay tomondan yaqin kelishi qiziqarli misollar bilan ko`rsatilib, tarjimada erkinlik va aniqlik borasida tahliliy fikrlar keltiriladi.

G`.Salomovning ta`kidlashicha, rus shekspirshunosligi shu qadar taraqqiy etib ketdiki, endigi navbat Shekspirning qaysi asarini o`girish emas, balki, uning qaysi so`zi, jumlasini, iborasi, abzasini yana qanday usulda o`girsa bo`ladi? – yo`sinida qo`yilmoqda. Bu juda katta gap. Jumladan, taniqli tarjimon V. Levik shunday deydi: “Shekspir asarlarining yangi tarjimalari kerakmi? Buyuk dramaturg asarlarini tarjima qiluvchi kishilarning oldida ikkita muammo bor. Birinchidan, umuman yangi tarjimaga zarurat bormi? Ehtimol avval hamma ishni qilib bo`lingandir! Ikkinchidan, Shekspir asarlarining hozirgi yangi tarjimalari qanday bo`lishi kerak? Shekspir ijodini o`zlashtirish borasida shunday ulkan ishlar amalga oshirilgan bir sharoitda, endilikda tarjimonlar oldida qanday vazifalar turadi?”. Agar o`zbek shekspirshunosligida Cho`lpon, Shayxzoda, G`afur G`ulom va Jamol Kamollar amalga oshirgan tarjimalar muhim ahamiyat kasb etsa, rus Shekspirshunosligida Shekspirning uch buyuk tarjimoni alohida ta`kidlab ko`rsatiladi. Bular: Mixail Lozinskiy, Boris Pasternak va Samuel Marshaklar. G`.Salomov ta`biricha, - M.L.Lozinskiy Shekspirni aynan o`ziday, so`zma-so`z tushunishga, uni satrma-satr tiklashga harakat qiladi.. Zero, Mixail Lozinskiyning o`zi shahodat berishicha, u “Hamlet”ni o`ylaganida, beixtiyor, Jabotinskiy bilan Volkov ko`z o`ngiga kelishini ta`kidlaydi. Uning aytishicha, u juda vahimali og`ir tosh ko`tardi, lekin bunday alp g`ayrat qanday natija berdi va uning foydali ko`ffitsenti nianga teng?”. G`.Salomovning aytishicha, M.Lozinskiy tarjimasidagi ayrim satrlarni asl nusxa bilan qiyos qilib ko`rilsa, uning naqadar aniq berilganligiga tasanno o`qiging keladi. Lekin asl nusxani bir chetga qo`yib, tarjimaning o`zi o`qilsa, she`riy nafosat va haqqoniyat qo`ldan berilgani ma`lum bo`lib qoladi..

O`zbekistonga Shekspir asarlari XX asrning 30-yillarida kirib keldi. 30-yillarning birinchi yarmidan e`tiboran o`zbek kitobxonlari inglizabon mualliflar asarlari bilan yaqindan tanisha boshladilar. Bu davrda tarjimonlar e`tiborini buyuk ingliz dramaturgi V.Shekspir ijodi ko`proq o`ziga tortdi. Dramaturgning nazmda bitilgan «Veronalik ikki yigit» komediyasini 1930-yilda Javod Obidov va «Hamlet»

tragediyasini 1934-yilda shoir Cho‘lpon (P.A.Kanshinning 1893-yildagi nasriy tarjimasidan) nasriy yo‘l bilan o‘zbek tiliga tarjima qilishdi. «Hamlet» tragediyasi tarjimasini ko‘pgina jiddiy xato va kamchiliklarga ega bo‘lishiga qaramasdan, o‘zbek kitobxonlarining eng sevimli asarlaridan biriga aylandi va Hamza teatri repertuaridan mustahkam o‘rin egalladi. Umuman olganda endigina rivojlanayotgan o‘zbek dramaturgiyasi, sahna san’atkorlarining ijodiy o‘sishi, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto‘rayeva, Shukr Burxonov, Olim Xo‘jayev, Nabi Rahimov, kabi mahorat egalarining aktyorlik kamolati buyuk dramaturk yaratgan genial obrazlar vositasi sifatida shakllandi deydi F. Sulaymonova o‘z kitobida. U. Shekspir ijodi bilan o‘zbek kitobxon ommasini yanada kengroq tanishtirish borasida respublikamizning taniqli shoiri Jamol Kamol katta jonbozlik ko‘rsatdi. U 80-yillarning birinchi yarmida V. Shekspirning atoqli shoir va tarjimonlarimiz tomonidan o‘girilgan barcha dramatik asarlarini yaxshigina tahrir qilib nashrga tayyorladi va o‘zi ham muallifning «Qish ertagi», «Qirol Genrix IV», «Makbet», «Koriolan», «Venestiya savdo-gari» kabi beshta asarini tarjima qilib, mazkur nashrga kiritdi. Shunday qilib, 1981-85 yillar mobaynida V. Shekspirning o‘n beshta dramatik asaridan iborat besh jildlik tanlangan asarlari G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida chop etildi. Darvoqe, V. Shekspir asarlarining o‘zbek tilidagi birinchi to‘plami, eslatib o‘tilganidek, 1960-yilda bosib chiqarilgan bo‘lib, unga muallifning beshta mashhur dramatik asari kiritilgan edi.

Shekspirning mashhur asarlariga qaytadigan bo‘lsak, “Shekspir asarlarini yozganda, o‘zigacha mavjud bo‘lgan dramalar, komediyalar, solnoma va rivoyatlar syujetidan foydalanganini hamma biladi. Lekin, shunga qaramasdan, Shekspir asarlari pafosi, badiiy konsepsiyasi, xarakteri jihatidan o‘z davri uchun tom ma’noda yangilik ekanini ham inkor etish mumkin emas.. Haqiqatan, bu asarning syujet tizimi, nutqi, harakatlari risoladagidek. Barcha dramatik vaziyatlar mantiqiy asosga ega. Voqealar tushunarli. Ushbu asar so‘nggida Lir ham, qizlari ham o‘lmaydilar. Aksincha, keksa Lir qator dramatik vaziyatlardan keyin sevimli kenja qizi Kordeliya bilan birga qolib, murod-maqsadiga yetadi. Zotan, uning maqsadi umrining so‘nggini Kordeliya huzurida tavba-tazarru bilan o‘tkazish edi, vassalom. Shekspir asaridagi Gloster oilasi bilan bog‘liq syujet chizig‘i esa klassik dramada umuman yo‘q. Shu nuqtai nazardan ayni drama yagona syujet chizig‘i, yagona mantiq va maqsadga ega. «Gamlet» va «Otello»ning klassik syujetlariga nisbatan ham shu

gapni aytish mumkin. (Bu o‘rinda «klassik» terminini an’anaviy degan ma’noda qo‘llayapmiz – Uzoq.J.).”⁴

Bir so‘z bilan aytganda, Shekspir asarlarini o‘zbek o‘quvchilariga yetkazishda tarjimonlar mashaqqatli mehnat qildilar. Ularning zahmatli ishlaringa xolis baho berish tarjimashunoslik fanining dolzarb vazifalari sirasiga kiradi.⁵ Nihoyat, o‘zbek kitobxonlariga Shekspir bevosita asliyatdan ham o‘girilib, taqdim etildi. Buni taniqli o‘zbek tarjimoni, O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol amalga oshirdi. U buyuk ingliz dramaturgining “Hamlet”, “Otello”, “Makbet”, “Antoniy va Kleopatra”, “Afinalik timon” asarlarini ingliz tilidan tarjima qilib nashr ettirdi.⁶ Kitobga O‘zbekiston Fan Arbobi, professor G‘.Salomov va professor B.Nazarovlar kirish so‘zi yozishgan. Tarjima nashriga ingliz tilining bilimdonlari bo‘lgan taniqli tilshunos, tarjimashunos va adabiyotshunoslardan professor A.Abdiazizov, D.Nuriddinova, dotsent K.Karomatova, tarjimonlar Q.Mirmuhammedov, N.Komilovlar rasmiy taqrizlar yozishgan. So‘zboshi mualliflari tarjimon Jamol Kamolning asarni asliyatdan o‘girishga qanday qilib kirib kelganligi va bevosita tarjimaning mashaqqatli odimlari borasida jumladan shunday deydilar: “ Biroq, tarjimon oldida o‘tib bo‘lmas, ulkan bir g‘ov bor edi. Axir u Shekspirning lisoni – ingliz tilini bilmaydi-ku! Nima bo‘pti, Hozirgacha qilib kelinganidek, Shekspirni ruscha tarjimalaridan o‘giraveradi. Avvaliga u ham shunday qildi, rus tilidan o‘girdi. Lekin ish bir joyga etkanda shu narsa ma`lum bo‘ldiki, Shekspirday buyuk zotni tarjima qilish uchun ingliz tilini bilish mutlaqo shart ekan. Tiyran va zahmatkash shoir Jamol Kamol Shekspir bilan asrlar osha adabiy muloqotda bo‘lish uchun til o‘rganishga kirishib ketdi. Ingliz tili bo‘yicha muayyan bilim va malakaga ega bo‘lgach, “Hamlet”, “Makbet”, “Antoniy va Kleopatra” asarlari tarjimalarini inglizcha asliga qiyoslab, ularni satrma-satr qiyoslab chiqdi. “Otello”, “Afinalik Timon” fojelerini bevosita inglizchasidan o‘girdi”⁷

Ammo 30-yillarda Shekspirni asliyatda o‘qishdan ancha yiroq edik. Sobiq ittifoq davrida aksariyat G‘arb adabiyoti namunalari rus tili vositasida tarjima

⁴ Hptt//library.ziyonet.uz.

⁵ Кароматова К. “Лейтмотивы трагедии У.Шекспира «Макбет» у узбекских переводах”.АКД. – Ташкент, 1985.

20.с.

⁶ Вильям Шекспир. Отелло. Жаҳон адабиёти дурдоналари туркумидан. Инглиз тилидан Жамол Камол таржимаси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991 йил. Б.780

⁷ Саломов Ф., Назаров Б. Шекспир даҳоси билан юзма-юз. Сўзбоши. / В.Шекспир. Отелло. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.

qilinardi. Hamma muloqotlar Moskvaning yo‘rig‘i bilan amalga oshirilar edi. Shu bois Shekspir bizga dastlab nasriy tarjima yani rus tili orqali amalga oshirildi. “Hamlet” tragediyasining o‘ttizinchi yillardagi o‘zbekcha nasriy tarjimasi Cho‘lpon tomonidan bajarildi. Bu tarjima sahnada namoyish qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, anchagina mahalliy muhitga moslashtirish kuchli bo‘lgan. Ya‘ni bizning mentalitetimizga moslashtirilgan.

Shunday qilib, Shekspir asarlari dunyoda eng ko‘p tarjima qilingan daholaridan hisoblanadi. Uning ayrim asarlari tilimizga ikki-uch martadan o‘girilgan. Uning tragediyalarining mavzusi hamon dolzarbligini yo‘qotgani yoq. Balki shu sababli ham dunyo teatr sahnalarida ham namoyishlar to‘xtagani yoq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulaymonova. F. Shekspir o‘zbekistonda.- Toshkent. Fan, 1978 - B. 3.
2. Вильям Шекспир. Танланган асарлар. 5 жилдлик. Қирол Лир. 2-жилд. Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981.
3. Саломов Ғ. Адабий анъана ва бадиий таржима. – Тошкент: Фан, 1980, Б.15.
4. [Hptt//library.ziyonet.uz](http://library.ziyonet.uz).
5. Кароматова К. “Лейтмотивы трагедии У.Шекспира «Макбет» у узбекских переводах”.АКД. – Ташкент, 1985. 20.с.
6. Вильям Шекспир. Отелло. Жаҳон адабиёти дурдоналари туркумидан. Инглиз тилидан Жамол Камол таржимаси. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991 йил. Б.780
7. — Саломов Ғ., Назаров Б. Шекспир даҳоси билан юзма-юз. Сўзбоши. / В.Шекспир. Отелло. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.